

Andijon Mashinasozlik instituti rektori U. M. Turdialiyevning Belgiya va Germaniyaga safari bo'yicha

HISOBOT

Safar muddati: 19.11.2023-26.11.2023

Safar manzili: Brussel shahri, Papenburg shahri, Xeede shahri,

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-noyabr 2/12-4/1-10223 sonli rozilik xatiga asosan, Andijon mashinasozlik instituti rektori U.M. Turdialiyevning Oliy ta'lim muassasalarini "Konsorsium" shaklida birlashtirish, xalqaro reytinglarda munosib o'rin egallashlarini ta'minlash bo'yicha Brussel shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan seminar-treningda ishtirok etish, AZ-Germany-Consulting (Delmenhorst), Meyer Werft GmbH & Co. KG. (Surwold) kabi korxonalar bilan muzokaralar o'tkazish maqsadida joriy yil 19-26-noyabr kunlari Belgiya va Germaniya Federativ Respublikasiga qiladigan xizmat safarida bo'ldi.

Andijon mashinasozlik institut rektori Belgiyada xizmat safarida bo'ldi. Belgiya Qirolligining poytaxti Bryussel shahrida Belgiya ta'lim kengashi tashabbusi bilan "Yevropa tajribasi: bilimlarni tijratlashtirish va tadbirkorlik universitetini rivojlantirish" dasturi doirasida "Yevropa gorizonti tadqiqotni rivojlantirish va xalqarolashtirish vositasi sifatida" mavzusida seminar-trening o'tkazildi. Treningda yetakchi mutaxassislar — doktor Yuliya Maskevich va professor Vinsent Jamyer tomonidan mavzular doirasida tushuntirishlar berildi. Ushbu seminarda Yevropa va Osiyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari rahbarlari qatorida Andijon mashinasozlik instituti rektori Umid Turdialiyev ham ishtirok etdi. Safar davomida rektor Belgiyaning bir qator oliy ta'lim muassasalari rahbarlari bilan uchrashishi hamda ular bilan energetika, mashinasozlik, transport va logistika, yengil sanoat va axborot texnologiyalari sohalari bo'yicha hamkorlikda malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy loyihalarni amalga oshirishni kengaytirish masalalari yuzasidan muzokaralar olib borishi ko'zda tutildi.



Andijon Mashinasozlik instituti O‘zbekistondagi OTMlar orasida birinchilardan bo‘lib Belgiya ta’lim kengashi a’zosiga aylandi. O‘zbekiston Respublikasining Belgiya qirolligidagi elchixonasida Yevropa ittifoqidagi nufuzli oliy ta’lim muassasalar bilan hamkorlikni o‘rnatishga bag‘ishlangan tadbir o‘tkazildi. Unda O‘zbekiston va Yevropa ittifoqidagi o‘ttizdan ortiq OTMlar rahbarlari ishtirok etdi. Tadbirda Andijon mashinasozlik instituti rektori Umid Turdialiyev ishtirok etib, taqdimot qildi. Taqdimot davomida rektor yig‘ilganlarga institut faoliyati, talabalar uchun yaratilgan sharoitlar, mavjud mutaxassisliklar hamda xalqaro hamkorlik aloqalari va loyihalar, amalga oshirilgan va kelgusida rejalashtirilgan ishlar haqida ma’lumot berdi.



Shundan so‘ng O‘zbekistondagi OTMlar ichida birinchilardan bo‘lib, Andijon mashinasozlik instituti hamda Belgiya ta’lim Kengashi o‘rtasida a’zolik shartnomasi imzolandi. Shartnomaga ko‘ra, Kengashga a’zo OTM ta’lim jarayoni sifatini oshirish, o‘qituvchilarni o‘qitishning interfaol uslublari va texnologiyalarni o‘rgatish va ularni amaliyotga tatbiq etishda qo‘llab-quvvatlash, shaxsiy potensial rivojlanish, ta’lim muassasasi xodimlarining tadbirkorlik ruhini rivojlantirish va ularni Yevropa Ittifoqi grantlariga loyihalarni taqdim etishga o‘rgatish, qo‘shma

xalqaro dasturlarni ishga tushirishda yordam berish, Belgiya Ta'lim Kengashining yopiq ekspert yig'ilishlari va tadbirlariga to'siqsiz kirish imkoniyatiga ega bo'ladi.



Institut rektori Germaniyaning yirik korxonalari bilan muzokaralar o'tkazdi. Andijon mashinasozlik instituti rektori Umid Turdialiyev Germaniya Federativ Respublikasida xizmat safarida bo'ldi. Safar davomida rektor Xeede shahridagi Kanne group, Hero-Glas, Jansen hamda Papenburg shahridagi Meyer Werft kompaniyalarining ishlab chiqarish korxonalari faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Tashrif davomida kompaniyalar rahbarlari bilan uchrashib, kelgusida talabalarning o'quv-amaliyotini o'tkazish va keyinchalik ularni ish bilan ta'minlash masalalari yuzasidan muzokaralar o'tkazildi.



Muzokaralar davomida korxonalariga iqtisodiyot, logistika, elektrotexnika, robototexnika va mexatronika, mashinasozlik, axborot texnologiyalari ta'lim yo'nalishidagi nemis tilini o'zlashtirgan talabalarni yuborish ko'zda tutuvchi Andijon mashinasozlik instituti hamda kompaniyalar o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolashga kelishib olindi.

